

I.f.n., dotsent Akbar SHERNAYEV
Oriental universiteti

KORXONALARDA MOLİYAVIY REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: maqolada korxonalar moliyaviy rejalashtirishni tashkil etishda istiqbolli moliyaviy rejalashtirish, joriy moliyaviy rejalashtirish va operativ moliyaviy rejalashtirishni o‘zaro muvofiqlikda tashkil etish lozim deb o‘ylaymiz. Mazkur jarayonda moliyaviy rejalashtirishning har bir turi alohida xususiyatlariga jiddiy e’tibor qaratish talab etiladi. Umuman istiqbolli moliyaviy rejalashtirishda ham, joriy moliyaviy rejalashtirishda ham moliyaviy rejalashtirishning asosiy printsiplaridan biri bo‘lgan to‘lovga layoqatlilikni va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash printsiplariga tayangan holda rejalashtirish tashkil etiladi hamda takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: global iqtisodiyot, investitsiya faoliyati, korxonalar moliya strategiyasi, moliyaviy rejalashtirish, Byudjetlashtirishda soliq to‘lov, valyuta siyosati, valyuta kursi, valyuta bozori, devalvatsiya, revalvatsiya, to‘lov balansi, valyuta cheklovlari.

ISSUES OF IMPROVING FINANCIAL PLANNING IN ENTERPRISES

Abstract: in the article, we believe that prospective financial planning, current financial planning and operative financial planning should be organized in harmony when organizing financial planning of enterprises. In this process, it is necessary to pay serious attention to the special features of each type of financial planning. Both in general prospective financial planning and in current financial planning, planning is organized based on the principles of ensuring solvency and financial stability, which is one of the main principles of financial planning, and recommendations for improvement are given.

Key words: global economy, investment activity, financial strategy of enterprises, financial planning, tax payment in budgeting, foreign exchange policy, exchange rate, foreign exchange market, devaluation, revaluation, balance of payments, currency restrictions.

Kirish

Jahon amaliyoti keskin raqobat sharoitida har bir korxona oldiga nafaqat bugungi kunda, balki istiqbolda ham bozordagi o‘rmini saqlab qolish hamda kengaytirishni shart

qilib qo'ymoqda. Bunda global iqtisodiyotdagi tebranishlar yangi istiqbolli loyihalar ustida ishlash, loyihalarni moliyaviy ta'minlash imkoniyatlarini baholash va tegishli choralar ko'rish, investitsiya faoliyatidan kutilayotgan natijadorlikni ta'minlash, moliyaviy ta'minot va investitsion faoliyatni rejalashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni oldindan ko'ra bilish kabilarni shart qilib qo'ymoqda va bu jihatlar bevosita korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish amaliyoti bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Korxonalar moliya strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish mikro va makrodarajada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Umuman, strategiyani to'g'ri belgilash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida va o'z navbatida xalq turmush farovonligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalambor ro'y berishi mumkin bo'lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozini oldindan ko'rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish maqsadida hukumatiz tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Korporativ moliya strategiyasi mamlakatimizda bugungi kunda har qachongidan-da dolzarblik kasb etmoqda. Chunki savdo balansi ijobiyligini ta'minlash har qanday davlat e'tiboridagi masaladir. Savdo balansi ijobiyligi esa korporativ tuzilmalarning jahon bozoriga kirib borishi, egallab turgan o'rnini mustahkamlashi yoki ulushini oshirib borishi bilan bevosita bog'liq. Buning uchun esa strategik maqsadlar doirasida qo'shimcha kapital, jumladan xorijiy kapital jalb qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyatni tashkil qilish, xalqaro bozorni strategik tahlil asosida o'rganish kabilar talab etiladi.

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni tashkil etishga makrodarajada ham e'tibor qaratish talab etiladi. Chunki korporativ tuzilmalar miqyosida moliyaviy rejalashtirishning samarali amal qilishi oldingi paragraflarda to'xtalib o'tganimizdek bozor muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bozor muvozanati o'z navbatida makroiqtisodiy darajada barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib xo'jalik sub'ektlari faoliyatining globallasuvi natijasida transmilliy korporatsiyalar, moliya-sanoat guruhleri faoliyati jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda xo'jalik sub'ektlar miqyosida moliyaviy rejalashtirishni samarali tashkil etish jahon iqtisodiyotining barqarorligiga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish buyruq elementi sifatida ifodalanmaydi. Aksincha, "Uning maqsadi – xo'jalik faoliyati muvaffaqiyati uchun

optimal imkoniyatlarni ta'minlash, buning uchun zarur mablag'larni olish, xo'jalik sub'ekting raqobatbardoshligi va foydaliligiga erishish, shuningdek, xo'jalik sub'ekting daromad va xarajatlarini, pul mablag'lari harakatini rejalashtirishdir", - deya izohlanadi [1]. Bundan ko'rinib turibdiki, moliyaviy rejalashtirish keskin raqobat sharoitida xo'jalik sub'ekti raqobatbardoshligi va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida pul mablag'lari harakatini, ya'ni daromad va xarajatlarni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan faoliyatdir.

Stephen A.Ross, Randolph W.Westerfield, Bradford D.Jordan "Moliyaviy rejalashtirish moliyaviy maqsadlarga erishish yo'lini belgilaydi», - deya ta'kidlaydilar [2]. Haqiqatdan ham mazkur izoh moliyaviy rejalashtirishning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Arthur J.Keown, John D. Martin, J.William Petty Moliyaviy rejalashtirishga korporativ moliyaviy boshqaruv tizimidagi alohida bosqich sifatida yondashadi va unda asosiy faoliyat bo'yicha moliyaviy prognozlariga e'tibor qaratadi [3]. Bunda moliyaviy prognozlar bevosita asosiy faoliyat natijalari bilan bog'liqligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

E.F.Brigxem, M.S.Erxartlar "moliyaviy rejaning eng asosiy ikki konponenti sifatida operatsion reja va moliyaviy rejadir", deya fikr bildiradi [4].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, moliyaviy rejalashtirish moliyaviy resurslarning cheklanganligi sharoitida alohida dolzarblik kasb etadi. Bundan bir tomondan o'z-o'zidan rejalashtirish tushunchasining talab, taklif, narx tushunchalari kabi har qanday iqtisodiy sharoitda muhimligi kelib chiqadi va umumiy iqtisodiy tushuncha sifatida yuzaga chiqadi.

Tahlil va natijalar

Fikrimizcha, investitsion resurslarni jalb etish shakli sifatida aksiyalar emissiyasining asosiy afzalliklari bo'lib kapitalni bir necha marotaba ko'paytirish imkoniyati, resurslarni muddatsiz jalb etish va oddiy aksiyalar emissiyasi amalga oshirilganda majburiy biriktirilgan to'lovlarning yo'qligi kabilar hisoblanadi. Dividendlar ko'rinishida aksiyadorlarga to'lovlarni amalga oshirish ko'pincha bevosita korporatsiyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari bilan bog'liq. Dividendlarni to'lamaslik emitentga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy e'tirozlarni keltirib chiqarmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlari tijorat tashkiloti turi sifatida bir qancha ustunliklarga ega:

- aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi korxonalarning asosiy ustunliklari;
- qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali Aksiyadorlik jamiyati (korporatsiya) ning faoliyat yuritishi uchun zarur, uning ulkan moliyaviy quvvatini

ta'minlaydigan sezilarli hajmdagi investitsion resurslarni jalb etish imkoniyati paydo bo'ladi;

- riskning, hamda korporatsiyaning bankrotlik holatida aksiyadorlarning moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli chegaralangan, likvidatsion (tugatish) qiymatini olish imkoniyati mavjud bo'ladi;

- korporatsiyalar nomuayyan muddatga tuziladi, faoliyati ixtiyoriy ravishda yoki bankrotlik holatidagina majburan tugatilishi mumkin. Ya'ni, faoliyat ko'rsatish muddatining chegaralanmaganligi (uzluksizligi) eng asosiy ustunliklaridan biri hisoblanadi;

- tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati tarzidagi korxonalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi mumkin, ya'ni, faoliyati universal hisoblanadi;

- korporatsiyaning joriy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan aksiyalarni bir qo'ldan ikkinchisiga o'tkazish (sotish) imkoniyati mavjud;

- aksiyadorlar huquqlarining qonunchilik tartibida va ustavda umumlashtirilganligi va qat'iy belgilab qo'yilganligi, korporatsiya faoliyati mexanizmining va alohida protseduralarning aniq reglamentga solinganligi qulaylik tug'diradi;

- qimmatli qog'ozlar bozorida korporatsiyalar tomonidan axborotni oshkor etishning majburiyligi korporatsiya to'g'risida "axborot kamomadi"ni to'ldiradi. Ya'ni, umumjamiyat fikrini, o'z imijini shakllantirish, bozorda o'ziga hamkorlar topish hamda boshqa ustunliklarini amalda sotish (qo'llash) imkoniyati mavjud;

Shuning bilan birga, fikrimizcha, investitsiyalarni jalb etish turi sifatida aksiyalarni emissiya qilishning asosiy kamchiligi korporatsiyani boshqarishga yangi aksiyadorlarni jalb qilish zaruratidir. Natijada, aksiyadorlik jamiyatini nazorat qilish (boshqarish)ni yo'qotish riski paydo bo'ladi. Bundan tashqari, agar korporatsiya bozorda unchalik taniqli bo'lmasa yoki uning aksiyalari past likvidlikka ega bo'lsa, u holda manfaatdor investorlarni topish uchun qo'shimcha harakat va xarajat qilishga to'g'ri keladi.

Moliyaviy rejalashtirishni xo'jalik sub'ektlar miqyosida samarali tashkil etish masalasi mamlakat miqyosida iqtisodiy taraqqiyot strategiyalarining ishlab chiqilganligi va amalga oshirish darajasi, moliyaviy qonunchilik holati, xususan soliq qonunchiligi barqarorligi kabi omillar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida mamlakat iqtisodiy taraqqiyot strategiyalari bilan birgalikda moliyaviy qonunchilik barqarorligiga ham jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi, deb o'ylaymiz.

Yana shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, mamlakatimizdagi xo'jalik sub'ektlar tashkiliy jihatdan O'zbekistonda yangi tashkil etilgan xo'jalik sub'ektlari

hamda davlat ixtiyorida bo'lgan xo'jalik sub'ektlarini qayta tashkil etish natijasida yuzaga kelgan xo'jalik sub'ektlariga bo'linadi. Aynan shundan kelib chiqqan holda ularda moliyaviy rejalashtirish xususiyatlari o'zaro farqlanadi. Ya'ni davlat ixtiyorida bo'lgan xo'jalik sub'ektlarni qayta tashkil etish natijasida yuzaga kelgan xo'jalik sub'ektlarda moliyaviy rejalashtirish keng miqyosda qo'llanadi. Bunda davlat xaridi bo'yicha mahsulot etkazib beruvchi xo'jalik sub'ektlarda moliyaviy rejalashtirish amaliyoti bevosita davlat bilan tuzilgan xarid shartnomalarini bajarishga qaratiladi. Ikkinchi tomondan mamlakatimizda yangi tashkil etilayotgan korxonalarda moliyaviy rejalashtirish amaliyoti faoliyatni dastlabki shakllantirishda hamda bank kreditlari jalb qilishda ko'proq uchraydi. Bu amaliyot mamlakatimizda jiddiy e'tibor qaratilib kelinayotgan kichik biznes sub'ektlarida ham qo'llanib kelinmoqda. Yana shuni ham alohida ta'kidlashimiz kerakki, moliyaviy rejalashtirish xorijiy korxonalarda, qo'shma korxonalarda birmuncha mukammal tarzda ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi kuchayib borayotgan hamda moliyaviy globallashuv sharoitida mahalliy xo'jalik sub'ektlarda, xususan kichik biznes sub'ektlarida moliyaviy rejalashtirishni amaliyotini keng yo'lga qo'yish ham mikrodarajada, ham makrodarajada, ham jahon xo'jaligi darajasida moliyaviy barqarorlikka xizmat qiladi. Bu o'z navbatida aholi turmush darajasining yuksalishiga xizmat qiladi.

Moliya strategiyasining ahamiyatli jihatlari, printsiplari, ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlari haqida yuqorida to'xtalib o'tgan edik. Shundan kelib chiqqan holda istiqbolli moliyaviy rejalashtirish amaliyotida ularga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Mazkur jihat ham bevosita xo'jalik sub'ektlar rivojlanishiga xizmat qiladi. Moliyaviy strategiya moliyaviy barqarorlikni va moliyaviy xatti-harakatlar o'zaro muvofiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan istiqbolli rejalashtirish metodlari tizimini o'zida aks ettirishi lozim. Bunda shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, moliyaviy strategiya shakllantirishda faqatgina standart uslubiy ishlanmalar bilan chegaralanib qolmasdan rahbariyat ish tajribasi, moliyaviy bozorlar haqidagi bilimi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni oldindan ko'ra bilish qobiliyati kabilarga ham jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi.

Mazkur holat bo'yicha sanab o'tilgan moliyaviy strategiyani shakllantirishning dominant sohalariga e'tibor qaratish xo'jalik sub'ektlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan birga davlat moliyaviy barqarorligiga ham taalluqli deb o'ylaymiz. Misol uchun davlat byudjetini zurur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, shakllangan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash (byudjet defitsiti, shuningdek davlat qarzlari nisbatan), davlat moliyasini boshqarishda band bo'lgan xodimlar malaka darajasini oshirish, byudjet daromadlarining asosiy

qismini shakllantiruvchi soliqlar belgilanishi to'g'ri tashkil etish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Doimiy to'lovga layoqatlilikni ta'minlash maqsadida byudjetlashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda asosiy e'tiborni dekadalar, oylar va choraklar bo'yicha byudjetlar tuzishga qaratish lozim. Shuningdek byudjetlashtirish amaliyotini operatsion faoliyat bo'yicha, moliyaviy faoliyat bo'yicha, investitsion faoliyat bo'yicha alohida-alohida tashkil etish ham xo'jalik sub'ektlari faoliyatida ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Byudjetlashtirishda soliq to'lov kalendarlari ham alohida ahamiyat kasb etadi hamda ular xo'jalik sub'ektlarning soliqlar bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida va belgilangan tartibda qoplashlariga zamin yaratadi. Soliqlar bo'yicha byudjetlashtirishni tashkil etishda barcha soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa va takliflar

Xo'jalik sub'ektlar faoliyatida moliyaviy rejalashtirishni tashkil etilishi jarayonida PEST – tahlili amalga oshirilib kelinayotganini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida SWOT tahliliga ham e'tibor qaratish lozim, deb o'ylaymiz.

1. Moliyaviy rejalashtirish yo'nalishlari sifatida rivojlanishning dominant sohalariga, ya'ni resurslarni shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, risklarni boshqarish asosida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, moliyaviy boshqaruv sifatiga jiddiy e'tibor qaratilishi, qulay biznes muhiti yaratilishiga imkoniyat yaratadi.

2. Xo'jalik sub'ektlarining operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyatlarida dekada, oylar va choraklar bo'yicha byudjetlashtirishni tashkil etish, ularning doimiy to'lovga layoqatliligini ta'minlaydi va to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga imkoniyat beradi.

3. Aktsiyadorlik jamiyatlarida Kuzatuv kengashi tomonidan strategik rivojlanish bo'yicha yo'nalishlar belgilanayotganda istiqbolli moliyaviy tahlil metodlari hisoblangan SWOT hamda PEST tahlilidan foydalanish, ularda kelgusida istiqbolli moliyaviy tahlil asosida aniqlangan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarga qarshi aniq chora-tadbirlar belgilanishi orqali moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini kamaytiradi.

4. Moliyaviy rejalashtirishni xo'jalik sub'ektlari miqyosida samarali tashkil etish yo'nalishlari mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot strategiyalarining ishlab chiqilganligi va amalga oshirilishi, moliyaviy qonunchilik holati, xususan, soliq va pul-kredit siyosati kabi omillar bilan bevosita bog'liq holda amal qiladi.

5. Moliyaviy rejalashtirish bo'yicha faqatgina standart uslubiy ishlanmalar bilan chegaralanib qolingan bir yillik rejalardan iborat bir xillikdan voz kechgan holda makroiqtisodiy rivojlanish strategiyalarini amaliyotga joriy etish asosida korxonalarda ham moliyaviy strategiyaga o'tish lozim.

6. Korxonalarda moliyaviy strategiyani Yaponiya amaliyotidagi kabi xalqaro raqobat muhitidan kelib chiqqan holda davlatning o'ta istiqbolli strategik moliyaviy maqsadlari, tarmoqlar strategiyalari asosida belgilash lozim. Bu jihat xo'jalik sub'ektlarining xalqaro keskin raqobat sharoitida moliyaviy o'sishga xizmat qiladi.

7. Moliyaviy risklarni boshqarish deganda, risk subyektlarining (korxona menejeri, risk menejeri, bodimlarga ma'sul hodimlar) risk obyekti (korxonaning, risk ta'siri ostida qolayotgan, moddiy boyliklari yoki jarayoni) ustidan risk omillari (ichki va tashqi) ta'sirini aniqlash, baholash, kamaytirish va nazorati jarayoni tushuniladi. Korxonalarining moliyaviy risk boshqaruvi doiraviy va davomiy xususiyatga ega bo'lib, u korxonaning barcha biznes jarayonlari va loyihalarini o'z ichiga oladi

8. Korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarish uchun eng birinchi qilinadigan ish bu ularni aniqlash hisoblanadi. Buning uchun, korxonalar moliyaviy risk tasnifidan foydalanishi o'rinli bodadi. Tadqiqotda, moliyaviy risklarni korxonalar amalga oshiradigan operatsiyalari bo'yicha 4 guruhga ajratildi: asosiy, moliyaviy, investitsion va soliq faoliyatini amalga oshirishda vujudga keladigan risklar

9. Moliyaviy risklarni boshqarishda u keltirgan oqibatni bartaraf etishdan ko'ra, keltirib chiqaruvchi omillarini oldini olish samara berishi aniqlandi. Shunga ko'ra, risk omillariga ichki va tashqi omillar sabab bodishi va ularning har biri boshqarilib bodishi va boshqarib bodinmasligi mumkinligini aniqlandi

10. Mamlakatdagi real sektor korxonalari moliyaviy risklarini boshqarishda xalqaro standartlarga muvofiq integratsion boshqaruv tizimi orqali har bir moliyaviy risk alohida yondashuv talab etadi. "Qo'qon mexanika zavodi" AJ ushbu usuldan foydalanishi oqibatida har bir aksiya uchun VaR metodidan foydalangan holda baholanganda moliyaviy risk darajasi 10% dan oshmasligiga erishgan

11. Korxonada moliyaviy risklarni boshqarishni raqamlashtirish orqali moliyaviy yoqotishlar hajmini kamaytirishga erishish bilan korxona sof foydasining kamida 5 foizi miqdorida har yilgi majburiy ajratma qilish orqali ustav fondining 5 foiz miqdorida zaxira fondining shakllantirish bilan xarakatsiz moliyaviy resurslar hajmini qisqartirish taklif etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Поляка Г.Б. Финансы. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2008 – С. 581.
2. Stephen A.Ross, Randolph W.Westerfield, Bradford D.Jordan. Fundamentals of corporate finance. 10th ed. USA: McGraw-Hill, 2013. – P. 92.
3. Arthur J.Keown, John D. Martin, J.William Petty. Foundations of finance : the logic and practice of financial management. USA: Pearson, 2014. – P. 436.
4. Eugene F. Brigham/Michael C. Ehrhardt. Financial management. Theory&Practice. 15th ed. USA: Cengage, 2015. – P. 489.
5. Dedajanov, B. N. (2021). Foreign management models: Advantages and disadvantages. In Экономика и предпринимательство в современном цифровом пространстве (pp. 17-20).
6. Akromov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. -- T .: Moliya, 2010 y -223 b.
7. Dedajanov, B. N. (2022). Menejment. Darslik.–Toshkent.:“Fan ziyosi” nashriyoti, 580.
8. Jiyanova N. Moliyaviy menejment. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. - 108 b.
9. Madaminova Z. «Moliyaviy menejment uslubiy ko‘rsatma». —T.: TIMI 2014.